Eraliyev Xalimjon Alimbekovich
Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi O‘quv va metodik ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
E-mail: eraliyev2020@gmail.com

DIREKTOR O‘RINBOSARLARINING MIDIERGONOMIK SALOHIYATINI OSHIRISHNING O‘ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.8321941

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim muassasalari o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish borasida midiergonomika talablariga asosan oqilona faoliyat yuritishlari, ta’lim muassassining xaqiqiy egasi bo‘lishi, direktor o‘rinbosarlari midiergonomik salohiyatini takomillashtirish zaruriyati, ta’limni yangilash uni demokratlashtirilishi, ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvini, o‘qituvchi va o‘quvchilarnig ish o‘rinlariga moslashuvlariga asoslangan ta’lim jarayoni xavfsizligi va qulayligini ta’minlash va amalga oshirishini integrativ jarayonlarni kuchaytirish, ta’limning ishlab chiqarish bilan aloqasini takomillashtirish bo‘yicha so‘z yuritilgan.

Kalit so‘z va tushunchalar: ergonomik yondashuv, midiergonomik madaniyat, ergonomik ta’lim muhiti, texnologik tizim.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishi bilan bir qatorda, ta’lim tizimini yanada rivojlantirish borasida juda ko‘plab ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ma’lumki, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlari asosida ta’lim-tarbiya berish, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishdir. Tarbiyalanuvchilarning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli jarayonda muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga erishishga yo‘naltirilgan, ta’lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayon tashkil etish o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlaridan midiergonomika bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga asoslangan madaniyatni talab etadi. Dars mashg‘ulotlarining internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda masofadan turib amalga oshirish, muayyan loyiha asosida tashkil etish, aniq maqsadga erishishga yo‘naltirilgan, ta’lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayonlarda eng samarali metodlardan foydalanish, ta’lim va tarbiya texnologiyalarini tanlash hamda dars jarayonlarini tashkil etish samaradorligini midiergonomik madaniyat ta’minlaydi.

ASOSIY QISM

Ta’lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlarining o‘zaro alokadorligi va umumiyligini hisobga olib, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish o‘quvchilarni bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va o‘tkazish o‘qtuvchilarning kreaktiv saloxiyatini hamda ergonomik madaniyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Ta’lim muassasida faoliyat yurituvchi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarining kasbiy malakasi, tegishli funksional vazifalari bo‘yicha ish tajribalari, kasb soxasiga muvofiqligi, egallab turgan lavozimi bo‘yicha funksional vazifalarni bilishi, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashuvi zamonaviy talablar darajasida bo‘lishi, hamda uning xolislik, oshkoralik, shaxsiy va kasbiy kompetentlik, amaliy tajriba, boshqaruv maxoratlari, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik kabi sifatlari bilan bir qatorda o‘quv ishlarini loyixalash va rejalashtirish, o‘quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o‘z faoliyatida rioya qilish, interfeys tar-

mog‘i dasturiy mahsulotlarini loyihalash ularning midiergonomik madaniyatlari darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’lim muassasalari o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish borasida midiergonomika talablariga asosan oqilona faoliyat yuritishlari, ta’lim muassassining xaqiqiy egasi bo‘lish, boshqaruvning barcha jabhalarini mukammal egallash, o‘z lavozim vazifalariga nisbatan o‘ta mas’uliyatli bo‘lish, ta’lim jarayoni xavfsizligi va qulayligini ta’minlay olish, o‘quv ishlarini loyixalash va rejalashtirish, o‘quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o‘z faoliyatida to‘la rioya qilish sifatlarining ularda mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlaridan kasbiy kompetentligi, midiergonomik salohiyat, tashabbuskorligi, shaxsiy sifatlari, boshqaruv ko‘nikmalari va tajribasi, tizimli tahlil va qaror qabul qilish malakasi, lavozim vazifalarni, eng avvalo, davlat siyosati talablaridan kelib chiqqan holda bajarishning maqbul, samarali yo‘llarini amalga oshirish talab etiladi.

Bugungi kun ta’lim tizimini yangilanishi, uni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini o‘zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi.

Bu o‘z navbatida, pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi rahbarlari va pedagog xodimlari zimmasiga umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarinining midiergonomik salohiyatini takomillashtirish borasida ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqiyosidagi yutuqlarini, ilmiy asoslangan innovatsiyalarni tatbiq etgan holda pedagogik jarayonlarni midierganomika talablari asosida tashkil etish va boshqarish, shuningdek, pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta’minlash yo‘nalishidagi mavjud noan’anaviy muammolarni ijobiy hal etish masalalari yuzasidan yangi vazifalarni yuklaydi.

Xozirgi zamon o‘qituvchisi o‘tgan asrdagi o‘qituvchidan tubdan farq qiladi. Avvallari o‘qituvchi uchun sinf xonasi, sinf taxtasi va bo‘r, partalar ya’ni o‘quvchilar ish o‘rni bo‘lishi kifoya edi. Xozirgi zamonda esa umumta’lim maktablarining faoliyatini moddiy texnik bazasi, ta’lim vositalarining turli tuman ko‘rinishlarisiz tasauvvur qilib bo‘lmaydi. Ushbu moddiy texnik baza va ta’lim vositalar pedagogik va ergonomik talablar, meyoriy xujjatlar asosida ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan [5].

Xorijlik olimlardan K.Bikshe, Ya.Gedroviss, R.Smit, L.Sidorchuk o‘qituvchi ergonomik salohiyati taxlil qilib maktablarning zamonaviy ta’lim sharoitida, pedagogik faoliyat mas’uliyati va ta’lim jarayonining ergonomik muxiti asosida kasbiy faoliyatini takomillashtirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatib o‘tganlar. Rossiya olimlari A.A.Belova, Ye.V.Voroninoy, R.S.Gershunskoy, A.A.Kriulinoy, L.P.Okulova, N.A.Pugal, Ye.S.Rapasevich, Ye.V.Ryabovoy, R.S.Safina, S.F.Sergeeva va boshqalarning tadqiqotlarida ta’limda ergonomika muammolari o‘rganilgan [4].

Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida talabalar kasbiy pedagogik tayyorgarliklarini takomillashtirish muammolari bo‘yicha: S.X.Abdullayev, O.S.Abdullayeva, S.R.Volkova, L.V.Golish, R.X.Djurayev, B.R.Djurayeva, Z.K.Ismoilova, G.X.Ibragimova, P.T.Magzumov, K.J.Mirsaidov, N.A.Muslimov, S.T.Turgunov, A.R.Xodjabayev, E.T.Choriyev, R.K.Choriyev [1]; o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradarligi muammolari yechimini topish yo‘nalishida: N.N.Azizxodjayeva, L.V.Golish, B.S.Nuritdinov [3] va boshqalar tamonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan midiergonomika va uning o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari faoliyatidagi o‘rni deyarli o‘rganilmagan, fikrimizcha buning asosiy sabablaridan biri direktor o‘rinbosarlariga midiergonomik tayyorgarlik berilmasligidir. Shuning uchun o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari midi-

ergonomik salohiyatini takomillashtirish zaruriyati dolzarb muammo bo‘lib, bu muammoni yechimini topish esa pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarida tinglovchilarga midiergonomika mavzulari orqali ergonomik tayyorgarlik berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Midiergonomik salohiyat – bu umumlashtirilgan faoliyat bo‘lib, ta’lim muassasasi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari faoliyatida ijobiy natijalarga erishish, pedagogik jarayonlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muassasasi ichki faoliyatining maqsadini tizimli rejalashtirishda o‘quv ishlarini loyixalash va rejalashtirish, o‘quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o‘z faoliyatida rioya qilish, interfeys tarmog‘i dasturiy maxsulotlarini loyixalash va amalga oshirishida zarur hisoblanadi.

XULOSA

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita ta’lim tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ta’limni yangilash uni demokratlashtirilishi, ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvini, o‘qituvchi va o‘quvchilarnig ish o‘rinlariga moslashuvlariga asoslangan ta’lim jarayoni xavfsizligi va qulayligini ta’minlash va amalga oshirishini integrativ jarayonlarni kuchaytirish, ta’limning ishlab chiqarish bilan aloqasini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlar ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning ob’ektiv o‘zgarishlari bilan bog‘liq holda, pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida, midierganomika talablarini o‘zlashtirgan, midiergonomik madaniyati rivojlangan malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini belgilaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘nalishida amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar “Malaka oshirish jarayonida o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari midiergonomik salohiyatini takomillashtirish”ni ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bular o‘z navbatida, ta’lim muassasasi rahbarlari va o‘qituvchilari pedagogik jarayonlarni midiergonomik talablar asosida tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, ushbu jarayon ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, sub’ektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o‘rganishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Абдуллаев С.Х. Ўқитувчиларнинг эргономик салоҳияти ривожлантириш муҳитини ташкил этиш тизими ва технологияси // Замонавий таълим. Тошкент, 2021. 9-сон. Б.28- 36.

2. Абдуллаев С.Х. Технологик таълим ўқитувчиларининг эргономик компетентлиги // Монография. – GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022, ISBN:978-620-2-48669-9.

3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство/учебное пособие для магистратуры всех специальностей. - Т.: ТГПУ им. Низами, 2003. – 192 с.

4. Окулова Л.П. Педагогическая эргономика: монография. – М. Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2011. – 200 с.

5. Ўзбекистон республикаси халқ таълими вазирлиги олий ва ўрта махсус таълими вазирлиги маданият ва спорт ишлари вазирлиги. Таълим муассасаларидаги мебель, ўқув-лаборатория асбоб -ускуналари, компьютер техникаси, спорт анжомлари ва бошқа инвентарлардан самарали фойдаланиш ҳамда уларни сақлаш тўғрисида й ў р и қ н о м а (қўлланма). Тошкент – 2010.

Эралиев Халимжон Алимбекович
Национальный центр подготовки учителей по новым методикам Наманганской области, заместитель директора по учебно-методической работе
E-mail: eraliyev2020@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ СРЕДНЕЭРГОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ЗАМЕСТИТЕЛЕЙ ДИРЕКТОРА

АННОТАЦИЯ. В данной статье заместители директора образовательных учреждений должны действовать рационально, исходя из требований мидергономики, чтобы повысить эффективность образования и обучения, быть реальным владельцем образовательного учреждения, совершенствовать мидергономический потенциал заместителей директора. Обсуждаются обновление образования, усиление интегративных процессов, обеспечение и реализация безопасности и удобства образовательного процесса на основе его демократизации, социализации и гуманизации, адаптации учителей и учащихся к рабочим местам, связи образования с совершенствованием производства.

Ключевые слова и понятия: эргономический подход, эргономическая культура, эргономическая образовательная среда, технологическая система.

Eraliev Khalimjon Alimbekovich
Namangan Region National Center for Training Teachers in New Methodologies, Deputy Director for Educational and Methodological Affairs
E-mail: eraliyev2020@gmail.com

SPECIFIC FEATURES OF INCREASING THE MIDIERGONOMIC POTENTIAL OF DEPUTY DIRECTORS

ANNOTATION. In this article, the deputy directors of educational institutions should act rationally based on the requirements of midiergonomics in order to increase the effectiveness of education and upbringing, be the real owner of the educational institution, improve the midiergonomic potential of the deputy directors. the need to renew education, to strengthen integrative processes, to ensure and implement the safety and convenience of the educational process based on its democratization, socialization and humanization, adaptation of teachers and students to workplaces, the connection of education with production improvements are discussed.

Key words and concepts: ergonomic approach, ergonomic culture, ergonomic educational environment, technological system